


Korxonalar va tashkilotlar

(2018 yil yanvar-dekabr)

2018 yilning yanvar-dekabr oyida viloyatda 1991 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2211 taga ko'pdir.










Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2444 ta (13,2 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 20915 tani tashkil etgan.



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbir qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar
va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
 Qishloq va o'rmon xo'jaligi	2766	2663	460
 Sanoat	2560	2497	502
 Qurilish	2662	2581	432
 Savdo	4918	4756	494
 Tashish va saqlash	781	761	85
 Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	888	861	126
 Axborot va aloqa	252	237	31
 Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	498	494	99
 Boshqa turlari	6225	6065	762



Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar.

2019 yilning 1 yanvar holatiga 21550 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 22,8 % savdo, 11,9 % sanoat, 12,4 % qurilish, 12,8 % Qishloq va o'rmon xo'jaligi, 4,1 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,6 % tashish va saqlash, 1,2 % axborot va aloqa, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 28,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Qarshi shahri (4695 ta), Koson (1811 ta), Chiroqchi (1718 ta) va Qarshi (1622 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Mirishkor (656 ta), Kasbi (754 ta) hamda Nishon (754 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalar yillar kesimida soni, *mingda*.






+ Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 20915 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2444 ta (13,2 %) ga o'sgan.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 22,7 % savdo, 11,9 % sanoat, 12,3 % qurilish, 12,7 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 4,1 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,6 % tashish va saqlash, 1,1 % axborot va aloqa, 2,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 29,0 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari,)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Qarshi shahri (4475 ta), Koson (1787 ta), Chiroqchi (1662 ta), Qarshi (1603 ta) va Kitob (1485 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Mirishkor (643 ta), Kasbi (721 ta) hamda Nishon (752 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda

01.01.2017 y.

• 18005 ta

01.01.2018 y.

• 18471 ta

01.01.2019 y.


• 20915 ta



Yangi tashkil etilgan yuridik shaxlar.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida 2991 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2017 yilning shu davriga nisbatan 35,3 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Qarshi shahri (657 ta), Chiroqchi (283 ta), Qarshi (222 ta) va Yakkabog' (218 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Mirishkor (108 ta), Kasbi (112 ta) hamda Dehqonobod (114 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (494 ta), sanoat (502 ta), qurilish (432 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (460 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqa (31 ta), tashish va saqlash (85 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (99 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.01.2017 y.		01.01.2018 y.		01.01.2019 y.	
	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %
Viloyat bo'yicha jami	1793	100	2211	100	2991	100
Savdo	491	27,4	376	17,0	494	16,5
Sanoat	272	15,2	408	18,5	502	16,8
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	341	19,0	466	21,1	460	15,4
Qurilish	273	15,2	281	12,7	432	14,4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	113	6,3	127	5,7	126	4,2
Tashish va saqlash	70	3,9	90	4,1	85	2,8
Axborot va aloqa	18	1,0	45	2,0	31	1,0
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	43	2,4	56	2,5	99	3,3
Boshqa turlari	172	9,6	362	16,4	762	25,5

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda






TIJORAT KORXONALARNI.

2019 yil 1 yanvar holatiga 16361 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 7201 ta, oilaviy korxonalar – 670 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 7993 ta va boshqalar 497 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.


2019 yil 1 yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 85 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 31 taga yoki 57,4 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 64 tasi qo'shma korxonalar, 21 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Qarshi shahar (27 ta yoki jami ulushi 31,8 %), Kitob tumani (10 ta yoki 11,8 %) va Qarshi tumanlari (7 ta yoki 8,2 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Mirishkor tumani (1 ta yoki 1,2 %), Dehqonobod, Chiroqchi, Yakkabog' tumanlari (2 ta yoki 2,4 %), Nishon, Kasbi, Shahrisabz tumanlari (3 ta yoki 3,5 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'p sanoatda 51 tani (60,0 %), savdoda 12 tani (14,1 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 3 tani (3,5 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa axborot va aloqada 1 tani (1,2 %), tashish va saqlashda 2 tani (2,4 %), qurilishda 3 tani (3,5 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 9 tani (10,6 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 4 tani (4,7 %) tashkil qilgan. Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2018 yilning yanvar-dekabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 29 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 23 taga ko'paygan.


Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 5 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 5 ta va Koreya Respublikasi – 4 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yil davomida, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (15 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (6 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (4 ta) hissasiga to'g'ri keladi.



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni.


2019 yil 1 yanvar holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 16218 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018 yil 1 yanvar holatiga qaraganda 13,0 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 3646 tasi (22,5 %) Qarshi shahri, 1424 tasi (8,8 %) Koson, 1324 tasi (8,2 %) Chiroqchi 1262 tasi (7,8 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 16218 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 4730 tasi (29,2 %) – savdo, 2629 tasi (16,2 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2557 tasi (15,8 %) - qurilish, 2444 tasi (15,1 %) - sanoat, 847 tasi (5,2 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 744 tasi (4,6 %) - tashish va saqlash, 363 tasi (2,2 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 232 tasi (1,4 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek 1672 tasi (10,3 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.


Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



2018 yil yanvar-dekabr oylarida 2365 tadan ziyod kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 19,4 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Qarshi shahri (3646 ta), Koson (1424 ta), Qarshi (1324 ta) va Chiroqchi tumanlari (1262 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Mirishkor (427 ta), Kasbi (496 ta) hamda Nishon (530 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (494 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (457 ta), qurilishda (431 ta), sanoatda (499 ta) va tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (31 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (94 ta) hamda tashish va saqlashda (85 ta) tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar soni




Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2019 yilning 1 yanvar holatiga 691 tani tashkil etib, ulardan 670 tasi yoki 97,0 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 29,4 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 29,4 % yoki 197 tasi sanoat, 19,4 % yoki 130 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 18,8 % yoki 126 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 14,9 % yoki 100 tasi savdo, 2,8 % yoki 19 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,6 % yoki 11 tasi qurilish, 1,5 % yoki 10 tasi tashish va saqlash, 0,3 % yoki 2 tasi axborot va aloqa hamda 11,2 % yoki 75 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni tashish va saqlash, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Tugatilgan korxonalar va tashkilotlar


2018 yilning yanvar-dekabr oylarida jami 629 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tugatgan.

Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan -1352 taga tugatish kamaygan.

Albatta xo'jalik yurituvchi subyektlarning bugungi kun talablariga moslashishi va raqobatbardoshligini oshirish borasida yurtimizda talaygina ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanib, qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida mamlakatimizda tadbirkorlarning bugungi kun bozoriga moslashish darajasi ortib bormoqda.

Misol tariqasida 2016 yilda 3338 ta, 2017 yilda 1981 ta korxonalar va tashkilotlar o'z faoliyatini yakunlagan bo'lsa, joriy yilning yanvar-dekabrda ushbu ko'rsatkich 629 tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 1352 taga tugatish kamaygan.

Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida dinamikasi, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Tugatilgan 629 ta korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, 210 tasi (33,4 %) savdo, 94 tasi (14,9 %) qishloq va o'rmon xo'jaligi hamda qurilish, 65 tasi (10,3 %) sanoat, 29 tasi (4,6 %) tashish va saqlashda, 20 tasi (3,2 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 7 tasi (1,1 %) axborot va aloqada, 4 tasi (0,6 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 106 tasi (16,9 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, tugatilgan korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri kelgan.

Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.01.2018 yil		01.01.2019 yil		
	Soni (birlikda)	jamiga nisbatan, % da	Soni (birlikda)	Jamiga nisbatan, % da	Farqi, (+,-)
Jami					
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	317	16,0	194	14,9	-223
sanoat	209	10,6	65	10,3	-144
qurilish	187	9,4	94	14,9	-93
savdo	616	31,1	210	33,4	-406
tashish va saqlash	67	3,4	29	4,6	-38
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	91	4,6	20	3,2	-71
axborot va aloqa	22	1,1	7	1,1	-15
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	272	13,7	4	0,6	-268
boshqa turlari	200	10,1	106	16,9	-94

Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilga nisbatan DINAMIKASI (+,-)



2018 yil yanvar-dekabr oylarida 592 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan. Bu esa o'tgan yilga nisbatan -1060 taga kam kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan.

Tugatilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi 208 tasi (35,1%) savdo, 94 tasi (15,9 %) qurilishda, 92 tasi (15,5 %) qishloq va o'rmon xo'jaligi, 65 tasi (11,0 %) sanoat, 28 tasi (4,7 %) tashish va saqlashda, 19 tasi (3,2 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 7 tasi (1,7 %) axborot va aloqada, 3 tasi (0,5 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 76 tasi (12,8 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri kelgan.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash natijasida hududlarda ham tugatilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni yildan yilga kamayib bormoqda. Ushbu yo'nalishda asosan G'uzor tumanida -153 ta, Qarshida -135 ta, Kosonda -130 ta hamda Chiroqchi tumanida -126 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar o'tgan yilga nisbatan kam tugatilganligini statistik raqamlarda ko'rishimiz mumkin.

Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.:71-230-84-10 (11)
Tel.:75-221-17-93